

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI PEDAGOGIKA
FAKULTETI

5110900- “Pedagogika va psixologiya” bakalavriat ta`lim yo`nalishi
Pedagogik aksiologiya fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Mustaqillik sharoitida qadriyatlarimizning tiklanishi.

Bajardi: Umarova Gulshoda Istamovna

“Pedagogika va psixologiya” ta`lim
yo`nalishi 4-kurs P1 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Raupova M.

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika va psixologiya kafedrasining

2014 yil 16 sentyabr № 2-sonli yig`lish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra professori: X.I.Ibragimov, kafedra mudiri: p.f.n. F.O.Xodjiyeva, o`qituvchilar: F.Hamidova, D.Umurzoqov, N.Sharipova, D.Usmonova, M.Raupova

K U N T A R T I B I

2014-2015-o`quv yilida Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya ta`lim yo`nalishi talabasi

_____ ning

kurs ishi mavzusini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri p.f.n F.Xodjiyeva so`zga chiqib, kafedra a`zolarini kurs ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi bugungi kundagi ahamiyatini nazarda tutib:

_____nomli kurs ishining mavzusi qilib tasdiqlansin.

Ilmiy rahbar etib _____ *belgilansin.*

Kafedra mudiri:

p.f.n F.Xodjiyeva

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri _____

p.f.n. F.O. Xodjjeva

«____» _____ 2014 -yil

KURS ISHI

“ _____ ” fani bo'yicha

Talaba _____

Ta'lim yo'nalishi _____ Kurs _____ Guruh _____

TOPSHIRIQ

1. Kurs ishi mavzusi _____

2. Boshlang'ich ma'lumotlar _____

3. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati _____

4. Yozma qismning tuzilishi _____

1. _____

2. _____

3. _____

4. _____

5. Qo'shimcha vazifa va ko'rsatmalar

6. Kurs (ishi) bajarishi

Kurs ishining himoya qilish

Kurs ishiga taqrizchi

Ilmiy rahbar _____

(F.I.O.)

(Imzo)

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika va psixologiya kafedrasining

2015 yil 27-yanvardagi 6-sonli majlis qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra professori: X.I.Ibragimov, kafedra mudiri: p.f.n. F.O.Xodjiyeva, p.f.n. M.Xalilova, o'qituvchilar: F.Hamidova, D.Umurzoqov, N.Sharipova, M.Raupova, D.Numonova, G.Saidova.

K U N T A R T I B I

____ -kurs talabalarining kurs ishi muhokamasi.

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: p.f.n F.Xodjiyeva so'zga chiqib, kafedra a'zolarining _____ fani bo'yicha tayyorlagan kurs ishi haqida to'xtalib, ishning to'liq talab asosida tayyorlanganligini, kurs ishining xulosasi, zaruriy hujjatlari rasmiylashtirilganligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng talaba: _____

O'z mavzusi bo'yicha uning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, olib borilgan uslubiy ishlarning natijalari haqida o'zining xulosa va tavsiyalarini bayon etdi.

Kurs ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga to'liq javob qaytardi.

MAJLIS QAROR QILDI:

1. Talaba: _____ ning

_____ mavzusidagi kurs ishi tugallangan ish deb hisoblansin.

2. Kurs ish himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

p.f.n F.Xodjiyeva

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

TAQRIZI

[illegible]

Bajarilgan kurs ishining yakuniy natijalari

Mavzuning dolzarbligi	Ishning talaba tomonidan mustaqil bajarilishi	Amaliy jihatdan olingan natija	Foydalanil-gan adabiyotlar	Rasmiy-lashtirish	Kurs ishi himoyasi	Jami	%
6	16	8	5	5	10	50	100

Ilmiy rahbar: _____

MUNDARIJA

KIRISH

REJA:

- 1. Mustaqil va demokratik jamiyat qurilishida milliy ma'naviy qadriyatlarning tiklanishiga bo'lgan ehtiyoj.**
- 2. Millat ma'naviyatini o'stirish va milliy o'zlikni anglashda qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyati.**
- 3. Barkamol avlodni shakllanishida tarbiya va milliy qadriyatlarimizning uyg'unlashuvi.**
- 4. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari.**

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston o'z tarixiy yo'lini faol izladi, bu davr Vatanni erkin, kuchli va ravnaq topayotgan diyorga aylantirishga intilish davri bo'ldi. Har bir kishi o'zi yashayotgan jamiyat yoki davlatning tarixiy maqsadini ifoda etadigan bosh g'oyalarni bilish, aniq tasavvur etishi kerak. Milliy qadriyatlarimiz ana shunday ezgu maqsad yo'lida xizmat qiladigan milliy-ma'naviy kuch-qudrat manbaidir. Ular o'zbekiston fuqarolarini mamlakat oldida turgan tarixiy maqsadlar yo'lida jipslashtiradi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy-ma'naviy yangilanishida milliy qadriyatlariga tayanishga alohida e'tibor berdi. Sobiq sho'rolar davrida amal qilinib kelingan, xalqimizning milliy-ma'naviy ruhiyatiga tamomila zid bo'lgan «kommunistik g'oya» dan voz kechildi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti va tajribasi biron-bir jamiyatning milliy qadriyatlarisiz, milliy g'oyalarisiz rivojlana olmasligini tasdiqlamoqda. Ana shu ezgu g'oyalar – mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etishda muhim yetakchi omildir. Bularning barchasi jamiyatni yangilashning O'zbekistonga xos yo'lini keltirib chiqardi. Bu yo'l ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga jahon, shuningdek xalqimizning turmush sharoitini, ana'nalarini, urf-odatlarini, turmush tarzini har tomonlama hisobga olgan konstitutsion asosga ega bo'lgan respublika aholisining manfaatlariga to'la mos tushadigan taraqqiyot jarayonidir.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda jahon xalqlarining tarixiy tajribasi, xalqimizning boy va qadimiy merosi, hamda sharqona turmush tarzining o'ziga xosligi, shuningdek komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq ilmiy falsafiy qarashlar va asoslari, amaliy uslublarini tushunib olish va o'zlashtirish g'oyat muhimdir. Bu ayniqsa ertaga mamlakatning kelajagi uchun javobgarlik, mas'uliyatini o'z zimmasiga olish kerak bo'lgan bo'lg'usi mutaxassis talabalar, umuman yoshlar uchun zarurdir. Buning uchun biz avvalo yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizga sodiqlik hissini uyg'otishimiz darkordir.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik – milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu printsip O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga etkazish uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdan qolgan buyuk madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarni xurmat qilish, ularni ijodiy jihatdan o'rganish – bu printsipning asosiy jihatidir. . Mustamlaka davrida cheklangan milliy bayramlarimiz, go'zal an'analarimiz, urf-odat va marosimlarimiz yana fidoiy xalq hayotiga qaytarildi. Mustaqilligimiz

qo'lga kiritganimizdan keyingi davrda qanchadan-qancha milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga qaytadan ega chiqdik. Bularning xalqimiz turmush-tarzida tutgan o'rni beqiyosdir. Bizning vazifamiz xalqimizning ushbu qadriyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish hamda o'quvchilar shaxsini shakllantirishda ulardan tarbiya vositasi sifatida unumli va to'g'ri foydalanishimizdan iboratdir. Zero, bunday qadriyatlar jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi.

Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish u yoqda tursin, o'z yurtimizda qadrlash uchun ham yo'l berilmadi, ko'pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'sha toptalgan qadriyatlarimizni tiklash, milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish imkoniga ega bo'ldik.

Dunyo bugun O'zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, qadriyatlarining umuminsoniy g'oyalar bilan mujassamligi, san'at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo'lmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: O'zbek xalqi jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, qadimiy qo'lyozmalar — milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrlil va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylab-asrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir. Ilm-fan va uning yutuqlari — milliy yoki hududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutug'iga aylantiradi.

Binobarin, ma'naviyat va qadriyat — xalqning bugungi hayoti uchun ham ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyijtimoiy sohalardir. Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, butungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ko'p asrlik tarixga ega.

Qadriyatlar xalq ma'naviyatini, xalq madaniyatini o'stirish, uni sayqallashda, bir-biriga oqibatli bo'lishiga, mehr-muruvvatli bo'lishiga, qolaversa barkamol avlodni tarbiyalashda muhim dasturul-amal vazifasini o'taydi. Jamiyat ma'naviyati mamlakat

taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uygotish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega. Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bunga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi, kiyinish, ovqatlanish, to'y-hashamlarni o'tkazish va boshqalardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Kurs ishining maqsadi: Qadriyatlarimizda mehr-oqibat, insonparvarlik tushunchalarini tahlil etib, ta'lim jarayoniga ham insonparvarlik yondashuvini joriy etishni yo'lga qo'yish. Yoshlar ongida milliy, ma'naviy va moddiy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatni shakllantirish va bu kabi qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillarini aniqlash va qo'llash.

Kurs ishining ob'ekti: Mustaqillik davrida tiklangan qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish jarayoni. Milliy qadriyatlarimiz bilan tanishish, ularni qo'llash va tadbiq etish chora-tadbirlari.

Kurs ishining predmeti: Qadriyatlar tushunchasiga oid manbalar, milliy merosimiz va ularning inson kamolotiga ta'sir etish yo'llari va usullari. Milliy qadriyatlarimizda ulug'langan insonparvar tushunchalardan samarali foydalanish, tadbiq etish yo'llari, usullari.

Kurs ishining vazifalari:

1. Mavzuga oid adabiyotlardan ma'lumotlar to'plash.
2. Adabiyotlar tahlili asosida qadriyatlar tizimi, ularning turlari tarkibi haqida keng tushunchaga ega bo'lish.
3. Yoshlar ongida milliy qadriyatlar ruhini shakllantirish.
4. Qadriyatlar asosida jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar va ularning qay darajada ta'sirini tahlil qilish.

5. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llarini izlash.
6. Turli trening va mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda qadriyatlarga bo'lgan munosabatni aniqlash.

1. Mustaqil va demokratik jamiyat qurilishida milliy-ma'naviy qadriyatlarning tiklanishiga bo'lgan ehtiyoj.

“Mustaqillik, O'zbekiston xalqi hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. O'z mustaqilligini, erkini qo'lga kiritgan har bir xalq o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat bunyod etishda o'z andozasini ishlab chiqishga harakat qiladi.”

I.A.Karimov.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston o'z tarixiy yo'lini faol izladi, bu davr Vatanni erkin, kuchli va ravnaq topayotgan diyorga aylantirishga intilish davri bo'ldi. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda jahon xalqlarining tarixiy tajribalari, xalqimizning boy va qadimiy merosi hamda sharqona turmush tarzining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq ilmiy-falsafiy qarashlar va amaliy tajribalarni ham mavzuning nazariy asosi sifatida o'rganishimiz mumkin.

Prezident I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida juda aniq va mukammal qilib ta'riflanganidek, O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. Bu - mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu - insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'ti qodidan qat'iy nazar fuqorolarning huquqlarini ta'minlab beradigan davlatdir. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi, birinchidan, o'z taqdirini o'zi belgilaydigan, ummbashariy qadriyatlar ustivorligiga asoslangan, insonparvarlik qoidalarini tan oladigan demokratik davlatdir. Ikkinchidan, fuqorolar osoyishtaligi va milliy totuvligini ta'minlashni o'zi uchun maqsad qilib olgan tinchliksevar davlatdir. Uchinchidan, o'zbek xalqining boy ijtimoiy-ma'naviy merosiga, milliy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, tarixiy qadriyatlari, milliy urf-odatlarini, an'analari tayanib ish tutadigan insonparvar davlatdir. To'rtinchidan, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyat chuqur anglab va his qilib faol ichki va tashqi siyosat olib borayotgan davlatdir. Hozirgi paytda O'zbekistonda qaror topayotgan davlat - bu demokratik davlatdir. Ma'lumki, O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligiga erishgach, yer sharining ko'pchilik axolisi kabi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Tabiiyki, bunday jamiyatni shakllatirishda, avvalambor, O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos milliy qadriyatlarini jahonda kechayotgan umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashayotganligini nazardan qochirmaslik kerak. Mustaqillik tufayli mamlakatimiz xalqi o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini tanlash huquqiga ega bo'ldi. Bu esa xalqimizning tarixan qaror topgan milliy-madaniy meroslarini, qadriyatlarini, ma'naviy ruhiy olamini qayta tiklagan holda o'z kelajagini ko'rish va qurish imkoniyatini berdi.

Mustaqilligimiz tiklangach milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarning o'rniga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Negaki, ular o'rtasida qati'y chegara yo'q. Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda obektiv zaruriyatlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi milliy qadriyatlarning diniy qarashlar bag'rida shakllanganligi asos bo'ladi. Mustaqillik yillarida eng katta qo'lga kiritilgan yutuqlarimizdan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning, jamiyat ma'naviy yuksalishidagi o'rni va ahamiyatining qayta tiklanishidir. Milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi bir qator mamlakatimiz olimlarining fikr va mulohazalarini umumlashtirish lozim. Negaki O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga asoslanadi. Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanzur yurtimizga ko'rk bag'ishlab turgan qadimiy obidalar, asori atiqalar, bunyodkorlik an'analari, milliy-ma'naviy qadriyatlari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur – iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Biz o'zbek xalqining boy o'tmishga egaligi, uch ming yillikdan ko'hnaoq tarixi borligi, qadimiy madaniyati va noyob ma'naviyati, jahon xalqlari madaniy rivojiga bebaho, ulkan hissa qo'shgan shonli farzandlari bilan har qancha faxrlansak g'ururlansak arziydi. Ammo, faqat g'urning o'zi bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Mashhur ajdodlarimizga munosib bo'lish uchun ko'plab ter to'kmoq, ular merosidan tegishli saboqlar chiqarmoq kerak.

O'zbekiston uchun tarix saboqlari nimadan iborat. U avvalambor, mustaqillik, erkinlik, adolat kabi olijanob, ezgu qadriyatlardir. Faqat mustahkam iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, tashkiliy – siyosiy zaminda qurilganidagina, butun boshli millatning, mamlakat xalqining, jamiyat har bir fuqarosining hayotiy faoliyati, amaliy hatti - harakati va fikr – yodi tarziga aylanishi hamda umrboqiy bo'lishligini tera anglashdan iborat. Xalqning shuurida hamisha, har qanday sharoitda ham buyuk qadriyatlarlar, ezgu amallar yashab keladi. Ana shu qadriyatlar bo'lmasa, ma'lum xalqning ozodlik va mustaqillik sari intilishi va oxir – oqibatda yuksak taraqqiyotga erishishi mutlaqo imkonsiz bo'ladi. Maqsad yo'lidagi bunyodkorlik ishlarimiz amaliy natijalar bera boshlagan, ko'zlagan rejalarimiz bosqichma – bosqich ro'yobga chiqib, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rin egallab borayotgan bugungi kunda qadim xalqimiz, millatimiz qoldirgan qadriyat va an'alarimiz orqali ushbu marralarimiz yanada mustahkamlanmoqda. Umuminsoniy yoki umumbashariy qadriyatlar insoniyat, xalqlar, millatlar erishgan oliy boylik bo'lib, chinakam milliy g'oyalar ham ana shu qadriyatlar tamoyiliga asoslanadi. Qadriyatlarning turlari ko'p va har birining ma'nosi juda keng. Jamiyatimiz har bir insonni e'zozlab uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini o'stirish, qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun o'zida bor

bo'lgan hamma imkoniyatlarini ishga soladi. Keyingi yillarda insonning shaxsiy haq-huquqlarini, erkinliklari va qadriyatlarini muhofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi.

Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning ob'ektiv olamiga nisbatan bo'lgan munosabatining ifodasi, shu bilan birga inson ma'naviy kamolotining muhim omili ekanligi haqida fikr yuritishdan oldin, uning ilmiy-falsafiy ma'nosi, paydo bo'lish va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ildizlari, shakllanishidagi shart-sharoit, imkoniyat va zaruriyatlar milliy, mintaqaviy, umumbashariy, diniy qadriyatlar singari turlari nimalardan iboratligini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Umuminsoniy yoki umumbashariy qadriyatlar insoniyat, xalqlar, millatlar erishgan oliy boylik bo'lib, chinakam milliy g'oyalar ham ana shu qadriyatlar tamoyiliga asoslanadi. Qadriyatlarning turlari ko'p va har birining ma'nosi juda keng.

Qadriyat – falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan bir ob'ektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi, baxolovchi jihatini ifoda etadi. Rus tilidagi sennost yani qadriyat tushunchasiga kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, manaviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy tasir ko'rsatadigan barcha narsa va xodisalar kiritilgan. Ana shunga yaqin nuqtai nazar boshqa ilmiy manbalarda ham bayon etilgan. Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va marifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarning mazmuni va xarakteriga ko'ra, progressiv va reaksiyon tiplarga ajratish mumkin deyilgan. Fikrimizcha, bunday tariflar mazkur kategoriyani o'ta sig'indor qilish bilan birga, uning asl mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. O.Tohirov, B.Ochilovalaning ta'kidlashicha, «Qadriyat -bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir».

«Qadriyatlar, - deb yozadi O.Musurmonova,- inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir».Siyosatshunos olim N.Jo'rayevning ta'kidlashicha, «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilishi lozim». Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko'rsatadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi:

-narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emotsional munosabatini ta'riflash;

- insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish;
- odamlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta'riflash.

«Qadriyat» tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarning turli ko'rinish(iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy)larini ajratib ko'rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi. Ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarni umumlashtirgan tarzda quyidagi o'n bir guruhga tasnif etilgan:

1.Ma'naviy qadriyatlar - shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek xalqining milliy an'analari, bayramlari, udum va odatlari, O'zbekistonda o'tgan mutafakkirlarning ma'naviy merosi, yozma asarlar, rivoyat va afsonalar, muqaddas joylar, tarixiy yodgorliklar, musiqa va qo'shiqlari, cholg'u asboblari, o'yinlari, dehqonchilik va hunarmandchilik kabilar ma'naviy qadriyatlarning asosini tashkil etadi. Ular kishilarning bir-birlariga, vatanga, oilasiga bo'lgan munosabatidagi axloq, xulq-atvorida, odob va xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

2.Milliy qadriyatlar - millat shaxsining tili, tarixi, urf- odatlari, an'analari namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar negizida «millat», «o'zbek» degan so'zlar o'z ifodasini topgan. «Millat» so'zi arab tilida quyidagi uch ma'noni anglatadi. Birinchidan- mazhab; ikkinchisi -ummat; uchinchisi -xalq, qavm. Millat so'zi Qur'oni karimda ham qo'llanilgan. Qur'onda har bir millat vakili o'z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi sababli o'z millatidan, qavmidan kechib boshqa millatga o'tib olish gunoh deb ta'riflangan. Yevropa adabiyotida qo'llaniladigan «Naatsiya» so'zi qabila, xalq degan ma'noni bildiradi, binobarin, bu ikki tushunchada ham muayyan etnik birlikning o'ziga xosligini bildiruvchi ma'no yotadi.Milliy qadriyatlar - millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar - o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilardir.

3.Siyosiy qadriyatlar - demokratiya yoki siyosiy jarayon bo'libgina qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning bugungi kuni, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlarini ifoda etadi. Siyosiy qadriyatlar dunyodagi barcha millat dinga mansub shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga xalqaro demokratik talablarga javob beradi. Unda inson huquqi, sha'ni, or-nomusi va himoyasiga qaratilgan barcha tamoyillar kafolatlanadi. Mamlakatimiz xavfsizligi,

barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni saqlash, kelajak avlodlarga obod va ozod Vatanni meros qoldirish mas'uliyatini oshiradi. Ichki va tashqi siyosiy muvozanatini saqlaydi. Siyosiy qadriyatlar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni asrashda va mustahkamlashda hamda ulardan foydalanishda imkoniyatlar yaratadi.

4. Huquqiy qadriyatlar - bu jamiyat va madaniyat, davlat va huquq yo'nalishlarini o'zida mujassam etib, har bir kishida huquqiy bilim, tafakkur va dunyoqarashni shakllantiradi. Huquqiy qadriyatlar - umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari, huquqiy madaniyat bo'yicha sharq falsafasi, o'zbek milliy mafkurasi, tarixiy- huquqiy meros va tajriba asosida kamol topadi. Huquqiy qadriyatlar eng avvalo umuminsoniy qadriyatlarga, umumjahon tsivilizatsiyasiga, bu sohada boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, xalqaro huquqning me'yorlariga asoslanadi. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi - huquqiy qadriyatlar hisoblanadi. Huquqiy qadriyatlar O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqning o'z ongi, uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy tajribasi, mehr-shafqati bilan mustahkamlanadi.

5. Mehnat qadriyatlari -tabiat bilan uyg'unlikda yashash, undan ibrat olish, uning go'zalliklaridan zavqlanish va tabiat qo'ynida mehnat qilish kabilarni tashkil etadi. Mehnat qadriyatlari - mehnat madaniyatining barcha elementlarini qamrab oladi. Har bir yosh avlod hayotga qadam qo'yar ekan, o'z ajdodlaridan faqat mehnat vositalarigina emas, balki mehnat madaniyatini ham meros qilib oladi. Shuning uchun ham mehnat qadriyatlari o'quvchilarning qobiliyatlari, imkoniyatlari va haqiqiy kuchlarini namoyon etish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Mehnat qadriyatlarida hunarmandchilik, kasb-hunar egallash muhim o'rin tutadi. Bunda zardo'zlik, yo'rmado'zlik, bo'zchilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, gilamchilik, kashtado'zlik, muqovasozlik, naqqoshlik, pichoqchilik, o'ymakorlik kabi hunarlarni o'rganish - mehnat qadriyatlarining negizini tashkil etadi.

6. Turmush qadriyatlari - tarixan muayyan ijtimoiy munosabatlar uchun xos bo'lgan hayot va faoliyat shakllari tizimi bo'lib, ular bevosita hayot sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi, muomalasi va tafakkur tarzi orqali namoyon bo'ladi. Turmush madaniyatining ma'naviy-ahloqiy va huquqiy rivojlanishini qamrab oladi. Turmush, xulq-atvor madaniyati, fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat a'zolarining ijtimoiy-huquqiy faolligi kabilarni turmush qadriyatlari asosida namoyon bo'ladi.

7.Diniy qadriyatlar - yolg'iz diniy qoidalar, ko'rsatmalar, tamoyillaridan iborat bo'libgina qolmay, u kishilar o'rtasidagi ma'naviy-ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa munosabatlarning ham ifodasidir. Islom dini jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, kishilarni iymon-e'tiqodli bo'lib yashashga da'vat etadi. Chunki, iymonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi. Halol va pok yashashni o'zining burchi deb biladi. Diniy qadriyatlarga suyanish, musulmonchilikning asl tamoyillarini rivojlantirish, ularni o'quvchi yoshlar ongiga singdirish - shaxs kamolotida, uning dunyoqarashi, axloqi, faoliyati mazmunini belgilashda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Diniy qadriyatlar xalqimiz turmush tarzi va hayotining negizini tashkil etadi. Diniy qadriyatlar barcha millat kishilari uchun muqaddas boylik bo'lib, ularni ezgulikka, poklikka da'vat etadi. Diniy qadriyatlar nafaqat oxiratda, balki bu dunyoda ham baxt-saodatga erishish mumkinligini e'tirof etadi.

8.Umummadaniy qadriyatlar -tufayli xiyobonlar, o'yingohlar, tomoshagohlar, san'at saroylari, ziyoratgohlar, maktablar, madrasalar, kutubxonalar, madaniyat maktablari kabi muassasalarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan nufuzli tadbirlar, turli millat xalqlarini birlashtirgan anjumanlar o'tkaziladi. Umummadaniy qadriyatlarga ega bo'lgan har bir millat do'st, mehmon, turist sifatida madaniy-ma'naviy yodgorliklarga o'z hurmatini izhor qiladi. Xalqaro munosabatlarda qat'iyatlilik, donolik, uzoqni ko'ra bilish, xorijda ishlayotgan, ta'lim olayotgan O'zbekiston vakillarining yurtimiz, xalqimiz sha'niga-shan, shuhratiga-shuhrat qo'shishi umummadaniylikning amaliy namoyon bo'lishidir.

9.Umuminsoniy qadriyatlar -bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarnmg milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini urf-odatlarini, an'analarini o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni axloqiy shakllantirishda millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yuksak insoniylik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, or-nomus, insof- diyonat kabi fazilatlardan foydalanish, shuningdek «ota-ona, qarindosh-urug'larning hurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotganlar manfaatlarini hisobga olish» muhim ahamiyatga ega.Umuminsoniy qadriyatlar shaxsning umumiy, axloqiy, intellektual, irodaviy, emotsional xislatlarini o'zida aks ettiradi.Shaxsning umumiy xislatlariyoqimlilik, ko'rkamlilik, jozibadorlik,ozodalik, fusunkorlik, basavlatlik, salobatlilik, rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ruhlanganlik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik...

«Qadriyat» deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruxlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim. Har bir millat o'z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalqning bu imkoniyatlaridan qay darajada foydalanishi – demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Ayniksa, bizning Sharkda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. xalqimizning yaqin o'tmishidagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligi sababi ham ruxida, ham qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo'lganligidir. Biron bir narsa va hodisa, xox u moddiy bo'lsin, xox ma'naviy bo'lsin qadriyatga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt davr o'tishi kerak. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib o'tadi. O'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat bo'la olmaydi. Uning milliy qadriyatga aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart. Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam xodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

- A) tug'ilgan makon va ona yurtga extirom;
- B) ajdodlar ruxiga sadokat;
- V) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;
- G) insoniy mumalada mulozamat;
- D) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik – milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu printsip O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga etkazish uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi Prezidenti Islom Karimov quyidagicha ta'kidlaydi: «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning hurujidan ximoyalanish bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan xar

tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda»¹. O'tmishdan qolgan buyuk madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarni xurmat qilish, ularni ijodiy jihatdan o'rganish – bu printsipning asosiy jihatidir. . Mustamlaka davrida cheklangan milliy bayramlarimiz, go'zal an'analarimiz, urf-odat va marosimlarimiz yana fidoiy xalq hayotiga qaytarildi. Mustaqilligimiz qo'lga kiritganimizdan keyingi davrda qanchadan-qancha milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga qaytadan ega chiqdik. Bularning xalqimiz turmush-tarzida tutgan o'rni beqiyosdir. Bizning milliy qadriyatlarimizning o'ziyoq o'zbek millatiga xos mentalitetni ko'rsatib beradi. Shunday milliy qadriyatlarimiz orqali yoshlarni qay tarzda kamol topib borayotganligini bir qarashda faxmlash mushkul ish emas deb o'ylayman. Chunki milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz ruhida ulg'ayayotgan yoshlar qalbida yuksak g'urur, behad faxrlanish tuyg'usini ko'ramiz.

2.Millat ma'naviyatini o'stirish va milliy o'zlikni anglashda qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyati.

Millat- har qanday milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat- milliy qadriyatlarning ham ob'ekti, ham sub'ektidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashning, milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakkam egasi, o'ziga xos milliy ma'naviyat va madaniyatning soxibiga aylandi. Tarixdan ma'lumki, biror bir xalq hayotida tub burilish sodir bo'layotgan davrlarda jamiyat yangi istiqbollar sari bormog'i uchun ijtimoiy munosabatlarni shunga muvofiq o'zgartirmog'i lozim bo'ladi. Millat – har qanday milliy qadriyatlarning obekti va subektidir. Millat tanazzuli- milliy qadriyatlarning tanazzuli. Milliy qadriyatlar tushunchasi muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarigina emas, balki ular yashayotgan hudud, ma'naviy va madaniy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruxi, tarixi, o'tmishi, turmushi va yashash tarzi, millat hayotining turmush-tarzi hamda ular bilan bog'liq milliy xususiyatlar, jihatlarni ham qamrab oladi.

Qadriyatlar xalq ma'naviyatini,xalq madaniyatini o'stirish, uni sayqallashda,bir-biriga oqibatli bo'lishiga, mehr-muruvvatli bo'lishga, qolaversa barkamol avlodni tarbiyalashda muhim dasturul-amal vazifasini o'taydi. Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat

¹ 1.Karimov I.A. «Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas'ulmiz» 9-jild. T.: O'zbekiston, 2001, 220 b.

o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uygotish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega. Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bunga kundalik hayotimizdan, turmush tarsi, kiyinish, ovqatlanish, to'y-xashamlarni o'tkazish va boshqalardan ko'plab misollar keltirish mumkin. Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'az xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va ornomusi aks etadi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush-tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Ma'naviyat va qadriyatlar — jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Ma'naviyat va milliy qadriyatlar alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining

ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy qadriyatlar eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

O'zbekiston istiqlolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi. "Kelajak bugundan boshlanadi,. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qaratilmasa, jelajak boy beriladi"²,-deb aytadi prezidentimiz. Shunday ekan Mustaqilligimiz inom etgan bunday ne'matlarni qadrlamoq va ulardan oqilona foydalanmoq har birimizning burchimizga aylanmog'i lozimdir. Binobarin, ma'naviyat va qadriyat — xalqning bugungi hayoti uchun ham ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyijtimoiy sohalardir.Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, butungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi.Bizning milliy qadriyatlarimiz ko'p asrlik tarixga ega.

Ma'naviyat –insonni ruhan poklanish va yuksalishga jalb eta oladigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonni uyg'otadigan qudratli kuchdir.Tarixdan ma'lumki, mamlakatning bir necha bor bosqinchilar hujumiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatleri qadsizlanishiga mahkum bo'lgan. Ayniqsa chor mustamlakachiligi va sovetlar tizimi davrida milliy qadriyatlarimizoyqosti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosi qadsizlantirildi, ko'plab madrasa va maktablar, masjidlar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi.O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab, mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash, yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning belgilab olindi. Milliy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'lida ularni hal qilishi mumkin. Ammo m'naviy islohotlar va muhtojlik iskanjasidan ozod bo'lish, bu borada tabiiyki ma'naviy meros,madaniy boyliklar, qadriyat sifatida ulug'lanuvchi ko'plab tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Millatning ma'naviyatini yuksaltirishda qadriyatlarning o'zni g'oyat beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlar ongini o'stirishda milliy qadriyatlarning, xalq pedagogikasining, buyuk bobokalonlarimiz qoldirib ketgan ulkan merosning nechog'li ahamiyatli ekanligini ko'rib chiqishimiz mumkin. Jamiyatimiz har bir insonni e'zozlab uning turmushini yaxshilash bilimi va madaniy saviyasini o'stirish, qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun o'zida bor bo'lgan hamma imkoniyatlarini ishga soladi. Keyingi yillarda insonning shaxsiy haq-

² I.Karimov "Barkamol avlod orzusi" 83-84-bet.

huquqlarini, erkinliklari va qadriyatlarini muhofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr - qimmatini haqida so'zlas bema'nilikdir. Qadriyatlar kishilarni turli sohadagi, avvalo ishlab chiqarish mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. Barcha axloqiy normalar, yurish-turish qoidalar singari, jamiki insoniy qadriyatlar ham jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yuzaga kelib, yangi mazmun, yangi shakl kasb etib, boyib va takomillashib boradi. Har qanday milliy tafakkur darajasi, avvalo, nimalarga asoslangani bilan o'lchanadi, bunda moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi juda muhim rol o'ynaydi. Odamlarning yashashi va rivojlanishi uchun moddiy noz-ne'matlar qanchalik zarur bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar ham shu qadar muhimdir. Odob-axloq, urf-odatlar, marosimlar shaklida namoyon bo'ladigan qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular kishilarning o'zaro munosabatlarida, yurish-turishid, axloq va odobida ko'zga tashlanadi. Odob-axloq, urf-odatlar sohasidagi qadriyatlar - xalqimizning eng qimmatli boyligidir. Qadriyatlarning ana shu turi insonning ichki ma'naviy ehtiyojiga aylansa, kishilar tomonidan o'zlashtirib olinib hayotga oqilona tatbiq etilsa, katta ijtimoiy kuchga aylanadi va ularning ma'naviy saviyasini o'stirishda ahamiyati yuqori bo'ladi. Bundan tashqari milliy ma'naviyatimizning shakllanishida yaxshilik, halollik, poklik, hamkorlik, hayrixoxlik, hamdardlik, burchga sodiqlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlarning rolini mavjudligini ham aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Inson faqat o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirish bilangina tirik emas. Mehnat qilish, jamiyatda yashash, o'zidan boshqa kishilar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqa va munosabatda bo'lish jarayonida u inson sifatida shakllanadi, o'sib-unadi, qobiliyat, iqtidor va iste'dodlarini namoyon qiladi. Ana shu ma'noda olganda insonga xos bo'lgan ma'naviy va axloqiy fazilatlar ajralib, insoniy qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Estetik qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ularga birinchi navbatda barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar va ulardan zavqlanish kiradi. Bularning zamirida olam-olam ma'no yashiringanki, ular xalq ma'naviyati va e'tiqodini yuksaltirishda katta ahamiyatga egadir. Jumladan, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Durbek Sa'diy va boshqa yuzlab va minglab buyuk adiblarimiz tomonidan yaratilgan nazmiy va nasriy asarlar, son-sanoqsiz badiiy adabiyot namunalari estetik qadriyat sifatida hozirgi paytda ham jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyotida katta o'rin egallab kelmoqda. Sa'natning, badiiy adabiyotning ham o'tmishda va hozirgi paytda yaratilib, voqelik aks ettirgan barcha turlari odalarning fikr va hislariga ta'sir etib, hayotni chuqurroq o'rganishlariga yordam bermoqda. Insonning murakkab ichki dunyosini, psixologiyasini, ruhiy holatlarini, ma'naviy qiyofasini

tasvirlashda san'atning hech qaysi turi badiiy adabiyotga tenglasha olmaydi. Badiiy adabiyot estetik qadriyat sifatida kishilarga hayot, jamiyat to'g'risida ong-bilim beradi, hayot hodisalari va mustaqil O'zbekiston davlati to'g'risidagi tasavvurimizni boyitadi, jamiyatimizga xos bo'lgan murakkabliklar, ziddiyatlar, qiyinchilik va muammolarni obektiv haqiqat tarzida bilib olishimizda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Estetik qadriyatning tarkibiy qismi bo'lgan badiiy adabiyotning mustaqilligimiz uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini Prezidentimizning bir guruh adiblar bilan uchrashib, ularga murojaat qilib aytgan quyidagi so'zlaridan ko'rishimiz mumkin:

«Odamlarga shuni anglatish kerakki, bizga berilgan imkoniyat yuz yilda bir marta kelishi mumkin. Asosiy masala shundan iboratki, mustaqillikni saqlab qolishimiz, uni kelajak avlodlarga omon yetkazishimiz, qadrini to'g'ri tushuntirishimiz lozim. Endi qaddimizni ko'tarishimiz kerak. Shuni unutmaslik kerakki, istiqbolimiz osonlikcha qo'lga kiritilgani yo'q. O'zbekistonning bugun faqat bitta yo'li bor, u ham bo'lsa o'zining mustaqilligini mustahkamlab, faqat olg'a yurishdir. Endi bu shiorning hozirgi murakkab vaziyatlarda ma'nosini xalqimizga tushuntirmasak, shu paytda ikkilanib tursak, kelajak avlodga xiyonat qilgan bo'lamiz. Buni sizlar juda teran anglaysizlar, bu gaplar yuragingizga yaqin, deb o'ylayman».

(Islom Karimov).

Bundan uchming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan "Avesto" deb atalgan kitobni oladigan bo'lsak: mustaqilligimiz qo'lga kiritilgandan keyin yanada keng tahlil qilinib, ta'lim muassasalari darsliklariga kiritildi. Ushbu asardagi purma'no fikrlar, ayniqsa "Ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal" degan uchlik shiorida juda katta ma'no yashiringan. "Avesto" dan tashqari xalq ijodi namunalari "Alpomish", "Shashmaqom" kabi san'at durdonalarining ham yoshlar hayotiga tanishtirilib borilishi o'z-o'zidan barkamol avlodning milliy ruhda tarbiyalanishiga ko'maklashadi.

Har bir millatning o'z afsonaviy qahramoni, polvanlari bo'ladi. Bobolarimiz o'z o'g'lonlarini ular kabi mard, halol, jasur va pahlavon qilib o'stirishga da'vat etadi. "Alpomish" dostonini keltiradigan bo'lsak, unda milliy qadriyatlarimiz o'z holicha, bo'rttirilmasdan yaqqol tasvirlangan. Bu doston millatning o'zligini tarannum etgan qahramonlik dostonidir. XIX-XX-asrning 50-yillarida milliy meroslarimizning ko'pgina namunalarini qatorida "Alpomish" dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib qatag'onga uchragan edi. Fidoyi ziyolilarimizning jasorat ko'rsatib, uni saqlab qolishga muvofiq bo'lganlar.

Yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan "Navro'z" xalqimizning qiyofasi, urf-odatlarining betakror ifodasi sifatida qadrlanadi. Ko'hna tariximizda esa unga eskilik sarqiti sifatida qaralgan. Islom dini xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har

qaysi insonning olloh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlash –umrning mazmuni, ruhiy poklanishga da'vat etgan. Afsuslar bo'lsinki sobiq ittifoq davrida jamiyat dindan ustun qo'yilgan, xalqimizning Qurbon, Ramazon hayitlari taqiqlangan. Ming shukrlar bo'lsinki, biz o'zligimizga, o'z dinimizga qaytdik. Bu albatta oson bo'lgani yo'q. Shu bilan birga islom dinini niqob qilib olgan, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutanosib kuchlar ham borki, biz ularga emas muqaddas dinimiz arkonlariga bo'ysunishimiz kerak. O'zbek xalqi uchun asrlar bo'yi diniy qadriyatlar ham muhim rol o'ynab kelgan. Diniy qadriyatlarda, birinchi navbatda islom ta'limotida jamiki odamzodni ezgulikka, haq va haqqoniyatga, to'g'ri yo'lga da'vat etadigan, nohaqlikka qarshi kurashishga chorlaydigan shunday bebaho falsafiy g'oyalar, nodir ikmatlar, rivoyatlar, pandu-nasihatlar, eng muhim yo'l-yo'riqlar borki, ularni bilib, chuqur 'zlashtirib olib, qat'iy amal qilgan, ularga suyanib faoliyat ko'rsatgan kishi hayotda hech qachon qoqilmaydi. Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quru aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifati kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr- oqibatlarini nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar. Diniy qadriyatlar odamlarni ilm-fanga, ma'naviy va marifatga da'vat etganligi jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Buni islom dini misolida ko'rish mumkin. Islom - ilm demakdir. Uning muqaddas kitobi - «Qur'on» da 78000ga yaqin so'z bo'lsa unda «ilm» so'zi turli hollarda 765 ta marta takrorlanadi. Islom faqat shar'iy ilmlarni emas, balki barcha ilmlarni o'rganishni foydali deb hisoblagan. Qur'on Karimning oyat va suralari, payg'ambarimizning hadislarini ilmga da'vat bilan to'la. Islom ilm talab qilishni ibodat darajasiga ko'targan, hattoki ibodatdan ilmni ustun qo'ygan. Imkon boricha qayerda qodir bo'lsang ilm o'rgan, ma'rifatni ziyoda qil, degan g'oya islom dinining mag'iz – mag'iziga chuqur singdirib yuborilganini hadisi sharifdan olingan misollardan ko'rish mumkin. «Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilm talab qilinglar. Chunki tolibi ilm bo'lishi har bir mo'min uchun farzdir»,

«Beshikdan to tobutgacha ilm o'rgan», «Yoshlikda olingan bilim- toshga o'yilgan naqsh kabidir». Payg'ambarimizning boshqa bir hadislarida «Kimki dunyoni xoxlasa ilm olsin, kimki oxiratni xoxlasa, ilm olsin» deya zikr etiladi. «Ilmni avval o'zi o'rganib, so'ng boshqalarga o'rgatishlik-sadaqalarning afzalidir», «Olim-ning o'limi- olamning o'limidir», deb hadisda aytilgan chuqur ma'noli fikrlar alohida bir xalq va millatga emas, butun insoniyatga qaratilgandir.

Din va diniy qadriyatlarning xalqparvarlik, millatsevarlik va insonparvarlik sohasidagi tarbiyaviy ahamiyati nafaqat o'tmish davrlar uchun, balki hozirgi payt va kelajak uchun ham benihoyadur. Diniy qadriyatlarning mafkuraviy-ma'rifiy, axloqiy ahamiyati tabiatga mehr - muhabbat, tevarak - atrofni, suvni, havoni, tuproqni,

hayvonot-u nabotatni asrab - avaylash haqidagi islom ta'limoti g'oyalarida to'la ifoda topgandir. Sayyoramizdagi, O'zbekiston saxiy zaminidagi jamiki noz-ne'matlarning qadriga yetish barcha odamlarning insoniy burchidir. Tabiiy boyliklarni, yer-suv va daraxtlarni, hayvonot olamini avaylab asrash qur'ondagi oyat suralariga, Payg'ambarimiz hadislaridagi g'oyalarga to'la hamohangdir. Shuning uchun ham tabiatni e'zozlash haqidagi har bir falsafiy g'oya o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatiga ko'ra umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Ma'lumki SSR davrida muqaddas qadriyatimizdan sanalgan 9-May "G'alaba kuni" sifatida bayram qilinar, markazda va respublikalarda dastlabki parodlar o'tkazilar edi. Davlatimiz mustaqillikka erishgach, bu sananing asl insoniy ma'no-mohiyatini qayta ko'rib, 9-May sanasini mamlakatimizda "Xotira va qadrlash" kuni sifatida nishonlashga qaror qilindi. Bu voqea hech shubhasiz, yurtimizda tarixiy xotirani, qolaversa qadimiy qadriyatlarimizning to'laqonli tiklash yo'lida hayotning o'zi taqazo etgan jiddiy qadam bo'ldi. Shu munosabat bilan poytaxtimiz viloyat va tumanlarida sovet mafkurasini o'zida ifoda etgan eski yodgorliklar o'rniga, xalqimizning ruhi va qarashlariga hamohang bo'lgan xotira maydonlari barpo etilib, Motamsaro ona haykali o'rnatildi. 1-Jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlari maxsus ishlangan lavhalarga, zarhal harflar bilan, 35 jildlik xotira kitobi chop etilishi mustaqilligimiz tufayli qo'lga kiritilgan yutuqlarimizdir. Shu kabi qadriyatlarimizning tiklanib borishi bilan ular millatimiz hayotining muhim omiliga aylanib boraveradi. Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yillar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda xalqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdodlarimizning avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosining kuchliligida, fuqarolarimizning el - yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidadir. Umumiy qilib aytganda, o'zligini anglagan har bir xalq, millat va davlat jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini e'tirof etishi, qadrlamog'i shart. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida tarixiy meros va tarixiy xotira muhim o'rin tutadi. Millat ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko'tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

O'zbek xalqi jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, qadimiy qo'lyozmalar — milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrlil va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylab-asrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir. Ilm-fan va

uning yutuqlari — milliy yoki hududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutug'iga aylantiradi.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma'naviyati, ayniqsa, san'at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib o'rin egallaydi va milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega. Shularni hisobga olib, prezident Islom Karimov «Turkiston Press» agentligi muxbirining savollariga javob berar ekan, madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan avlodga yetkazishda dinning beqiyos xizmati borligini uqtiradi: «Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz» deb ta'kidlaydi.

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligani ta'kidlash lozim. Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsada, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi. O'zbek oilalarida uch-to'rt, hatto besh avlod vakillari (ya'ni, bobo-buvilar, ota-onalar, farzandlar, nevaralar va chevaralar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar. Bu ham o'zbek xalqiga xos bo'lgan, bir qadriyat darajasiga ko'tarilgan hodisadir.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda to'laqonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g'oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Yuksak rivojlangan jamiyat o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e'tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o'zgalar va butun borliq oldidagi mas'uliyat tuyg'usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. "Men kimman?", "Bu yorug' dunyoga nima uchun keldim?", "Menga ato etilgan buyuk ne'mat — hayotimni

nimalarga safarbar etmog'im lozim?". Inson borki, ertami kechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo'l oladi. Bu yo'lni o'zlikni anglash deb aytish mumkin. O'zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko'tariladi. Demak o'zlikni anglash, avvalo, har bir insonning shaxsi, alohida «meni» bilan boglik. "O'zlikni anglash", "milliy o'zlikni anglash" va nihoyat "umumbashariy o'zlikni anglash" tushunchalari birbiridan ayri emas, balki birbiri bilan uzviy aloqador, birbirini taqazo etadi. Zero, inson otaona, oila, millat, ahli bashar, boringki, butun borliq bilan munosabatlar asosida o'zining kim ekanligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oya tamoyillari shakllangan va o'z navbatida, milliy g'oya ularni zamon talablari asosida boyitib boradi.

Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish u yoqda tursin, o'z yurtimizda qadrlash uchun ham yo'l berilmadi, ko'pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'sha toptalgan qadriyatlarimizni tiklash, milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish imkoniga ega bo'ldik.

3.Barkamol avlodni shakllanishida tarbiya va milliy qadriyatlarimizning uyg'unlashuvi.

Insonning komillik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rnini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining qadrqimmati xalqning, millatning qadrqimmati bilan nechog'lik bogliq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqyealarga daxldorligini anglaydi. Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, ularni milliy ruhini tarbiyalash zarurati ham shunchalik muhim hodisadirdir.

Milliy tarbiya - xalqning o'z-o'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir. Avvalo, u faxrlinish, milliy- tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush-tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'grisida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik millatidan qat'i nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom — O'zbekiston yoshlariga xos fazilatlaridir. Yoshlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllanishda, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqin munosabatda ham shu omil namoyon bo'ladi. Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan sharq mutafakkirlari va

faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalar ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazgan. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi. Ular hamon ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarimiz o'z xalqi, mamlakatining tarixini, milliy madaniy merosini, qadriyatlarini toptatmasligi, o'ziga xoslikni yo'qotmasligi uchun ham milliy qadriyatlarni o'rganishi, bilishi kerak bo'ladi.

Prezidenti Islom Karimov quyidagicha ta'kidlagan: «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalaniish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda».

Har bir fan oldiga qo'yiladigan umumiy talablar qadriyat g'oyasiga ham bevosita dahldor. Ayni paytda, milliy qadriyatlarning jamiyat, milliy madaniyat negizlari asosida shakllanishi, xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanishi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ham hisobga olish kerak. Bunda har bir o'sib kelayotgan shaxsning individual xususiyatlari, uning o'ziga xos dunyoqarashi, shunga mos tafakkur va hayot tarzi, milliy ong, o'zligini anglaganligi darajasi alohida o'ringa ega. Milliy qadriyatlariga, an'analarga, tarixi, ona tili, madaniyatiga bo'lgan munosabatda shakllangan va mustahkamlangan qalbdagi ruhiyati, e'tiqodi, sadoqati bilan vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari o'zining va millatining sha'ni, qadriyatini hurmat qilishda namoyon bo'ladi. Shuningdek har bir insonda umuminsoniy qadriyatlar boshqa xalqlar va millatlarning madaniy yutiqlariga o'zaro manfaatdarlik hamda milliy taraqqiyotida uni mustahkamlash nuqtai nazaridan qarash, baholash ko'nikmalari, sa'y-harakatlari orqali o'z ifodasini topadi.

Milliy qadriyatlar - voqea-hodisalarni bilish, tahlil etish, ularga baho berishga imkoniyat yaratib, bir qator ilmiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni ham bajaradi. Ulardan eng muximlarini quyidagicha ta'kidlaymiz:

- yoshlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin fikrlashni shakllantirish;
- yoshlar ongida milliy totuvlik hamjihatlikni istiqbolimiz yo'lidagi eng katta g'oyalardan hisoblanishi, nosog'lom mahalliychilik, urug'-aymoqchilik deb ataladigan illatlardan holi etishni shakllantirish;
- hayotga endi qadam qo'yayotgan yosh avlodning dunyoqarashiga qadriyatlar orqali yangicha ma'no va mazmun baxsh etish, ularda faol hayotiy pozisiyani, ishonch va e'tiqodni shakllantirish;

-jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, yoshlar ongiga Vatan taqdiri uchun mas'ullik, yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlash;

-istibdod davri asoratlari, qullik va mutelik kayfiyatlarining ongimizda, tafakkurimizda saqlanib qolayotgani sabablarini tahlil etish, ularni bartaraf etish yo'llarini topish zarurati bilan bog'liq vazifalarni hal etishdan iboratdir. Demak yangicha fikrlaydigan, mutelik tuyg'usidan xoli bo'lgan, o'zligini anglagan, avlod-ajdodlarini, madaniy merosini yaxshi bilgan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash qadriyatlarning muhim vazifasidir.

Milliy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga hamohang olib borishimiz, ularni yoshlarga tizimli o'rgatishimiz orqali yoshlar turli xil g'oyaviy ta'sirlarning maqsad va muddaolarini bir-biridan farqlay oladi. Chunki qadriyatlar yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini anglashi milliy -ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan sog'lom muhitni shakllantiradi va uni hurmat qilish ruhida tarbiyalaydi; Milliy qadriyatlarni o'rganish, milliy g'urur, avlodlarga munosib vorislar bo'lish, ular bilan faxrlanish va ularga o'xshab o'z Vatanining ravnaqiga munosib hissa qo'shish bilan bog'liqdir. Hozirgi zamon ilm-fan yutuqlarini egallash, fan va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etadi, vatanparvarlik tuyg'ularini oshiradi. O'z xalqiga va millatiga bo'lgan sadoqatini mustahkamlaydi. Qolaversa kelgusi avlodlar oldidagi mas'uliyatini oshiradi. O'zbekistonning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga ega bo'lgan mustaqil mamlakat sifatida dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'ringa va nufuzga ega bo'lishi uchun fidoyilik bilan mehnat qilishga xizmat qiladi.

"Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Ularni pisand qilmagan jamiyat pirovard oqibatda tanazzulga yuz tutadi". Prezident I. Karimovning hikmatga aylangan bu so'zlari bashariyat tarixi xususan, xalqimizning ming yillik ma'naviy axloqiy yuksalish tarixi borasidagi chuqur bilimlar e'tirofi natijasidir. Shuning uchun ham yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida (29 avgust 1997 yil) so'zlagan nutqlarida ta'lim tarbiya sohasidagi islohotlar mazmunini shunday belgilab bergan edi: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak". Xo'sh Vatan uchun kerak bo'lgan shaxslar tarbiyasini qadriyatlar g'oyasi orqali olib borish qanchalik samarali? Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek natijada: xalq uchun qayg'uradigan, vatan ravnaqiga ulkan hissa qo'shadigan ma'rifatli har tomonlama yetuk shaxslar yetishib chiqadi.

Ayni shunday ta'lim va tarbiya ko'rgan shaxslargina "kim edik?", "kim bo'ldik?", "kim bo'lmoqchimiz?" degan savollarga tinimsiz javob izlaydi. Shunda yoshlarimiz milliy madaniyatimiz sarchashmalariga avaylab muunosabatda bo'lishni o'rganadi, jahon madaniyatini chuqurroq bilishga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib yashashga

intiladi. An'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlikda ko'ra biladi. Shundagina xalqimiz milliy o'zligini kundan-kunga teran anglab, ma'naviy yuksalishga erishadi, kelajakka ravshan ko'z bilan qaraydi. Ana shunda milliy qadriyatlar ijtimoiy hayot sohalariga tadbiq etilib, moddiylashadi va taraqqiyot omili bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyatlarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati, qadr-qimmati ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda mazkur davrning yutuqlari, pedagogik fikrlar taraqqiyotidagi hissasi, ularning keyingi davrlar uchun qay darajada qadrli bo'lgani hisobga olinadi. Bu ayniqsa, pedagogik fikrlar, nazariya va yondashuvlarga pedagogik tomondan baho berganda yaqqol ko'rinadi.

Pedagogik jarayonni qadriyatlar uyg'unligida olib borish nafaqat o'quvchining iqtidori, qobiliyati, iste'dodi, uning bilish imkoniyatlari balki «noyob hodisa (fenomen)» sifatida qarashi ustuvor bo'ladi. Bunda quyidagilar e'tirof etiladi:

- shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyekti sifatida aks etadi;
- shaxs - qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimi maqsadi;
- har bir ta'lim oluvchi qobiliyatli, ko'plab ta'lim oluvchilar iqtidori
- shaxsning muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi;
- pedagogik muhabbat, ta'lim oluvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash;
- ta'lim oluvchiga yuksak ishonch bilan qarash;
- hamkorlik, muloqot mahorati;
- to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish;
- ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;
- ta'lim oluvchi shaxsiga ta'lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat.

Jamiyat me'yor, talab, ideal, madaniy qadriyatlar shaxs tomonidan yakka va tanlangan holda qabul qilinadi va o'zlashtiriladi. Shaxs qadriyatli munosabati shuning uchun ham har doim ham jamiyat tomonidan qabul qilingan va e'tirof etiladigan qadriyatlarga mos kelmaydi. Jamiyat qadriyatlari qachon stimol va faoliyat ko'rsatishga uyg'otuvchi kuch bo'ladi, qachonki, inson tomonidan ongli ravishda qabul qilinsa va o'zlashtirilsa hamda uning shaxsiy qadriyati, da'vati, ideali, maqsadiga mos kelsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi insonparvarlik

qadriyatlari tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi, u esa o'zida insonparvarlik madaniyati asoslarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalasi o'zida katta ijtimoiy ahamiyatni ifoda etadi. Uning muvaffaqiyatli yechimi ko'p hollarda ta'limning insonparvarlashishiga bog'liqdir. Uning mazmuni shundan iboratki, shaxs tomonidan ongli ravishda madaniy qadriyatlar tanlab, o'zini ta'minlash va uning negizida mustahkam, inkor etmaydigan, insonparvar qadriyatli munosabatlar individual tizimini shakllantirishdir.

Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori mo'ljalga olinadi, Ular esa uning insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining kontseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi. imperativ xulq-atvor me'yor sifatida, qadriyatli munosabat u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday ko'rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma'naviy boshqarilishi ham yo'naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi. Shuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko'rilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga yonaltirishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib yetishi hali kamdir. Qadriyat faoliyat motivini uyg'otuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizatsiyalansa, ichki mavjudlikni zarur lahzalarini taqdim etsa, inson o'z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma'nosini ko'ra olsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, to'g'ri va o'z vaqtidagi nazorat, o'z hatti-harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyon bo'ladi. U yoki bu qadriyat qachonki tashkillashtirish, obyekt tanlash va sharoit yaratish, maqsadli faoliyat amalga oshirilsa va u esa shaxs tomonidan baholash va o'zlashtirish zaruriyatini uyg'otsagina, shaxs ehtiyoj obyektiga aylanadi. Demak, ma'naviy qadriyatlar qachonki, tarbiya ularning interiorizatsiyasi jarayoni sifatida tashkillashtirilsa, inson ehtiyoji obyektiga aylanadi. Interiorizatsiya umuminsoniy qadriyatlarning shaxs oliy psixik funktsiyasiga aylanishiga olib keladi. Shaxs rivojlanishi madaniyatining istalgan funktsiyasi ham intepsixik va interapsixik ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga interiorizatsiya eksteriorizatsiya bilan birga amalga oshiriladi muhitni yangi obyektlarni yaratish yo'li bilan ijodiy o'zgartirishdir. Oxirgisi yordamida ehtiyojlarni yaratish amalga oshiriladi, u esa shaxs aksiologik munosabati motivatsiyasi asosini tashkil qiladi.

4. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari.

Qadriyatlar tizimi g'oyat murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni o'zida umumlashtirgan yaxlit tabiiy organizm - jamiyat bilan uzviy bog'liq. Pedagogning ijtimoiy nuqtai nafari umumta'lim maktabi chog'laridayoq, qarashlar, qadriyatlar tizimi tarzida shakllanib, rivojlanib boradi. Ularning asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagoglik kasbiga, pedagogik faoliyatning maqsad va vositalariga nisbatan qadriyatli munosabat tarkib topadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat, keng ma'noda o'qituvchi shaxsining negizini tashkil etuvchi yo'nalganlikni ifodalaydi.

O'zbekistonda ham ta'lim islohotlarining qadriyatli yo'nalishlari qaror topib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir», deb belgilab qo'yilgan. 42-moddasida esa, «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi; davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi» ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 4-moddasida bilim olish huquqi qadriyat sifatida quyidagicha ko'rsatib qo'yilgan: «Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha yashnganidan qat'iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi».

O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari. Aksiologik yondashuv asosida insonning o'z-o'zini kamolotga yetkazib borishining quyidagi jihatlarni hisobga olish bilan bog'liq:

- 1) shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga, o'zini kasbga safarbar etishga, o'z ishini tashkil etishga shayligi;
- 2) uning o'z-o'zini axloqiy jihatdan tartibga solish layoqati;
- 3) shaxsning qadriyatli-mazmunli rivojlanish darajasi va o'z ishini tashkil etishi;
- 4) shaxsning yuqori darajadagi mustaqilligi;
- 5) uning aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga kirishishga shayligi;
- 6) o'zini, o'z shaxsini takomillashtirib borishga qaratilgan ongli xulq-atvori;

7) undagi komillikka intilib borishdagi maqsad va vazifalarning barqarorligi, ularni hayotining mazmuniga aylantirishi;

8) shaxs faoliyatining ijodiy tavsifi;

9) o'zini mutaxassis sifatida shakllantirib borish jarayonining samaradorligi.

O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish murakkab ko'rinishga ega bo'lib, mazkur jarayon o'zaro bir-biri bilan bog'langan tarkibiy qismlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday o'zaro aloqador qadriyatlar tizimining tarkibiy qismlariga ehtiyoj, qiziqish, motiv, faoliyat maqsadi, axloqiy ideallar, interiorizatsiya kabilarni kiritish mumkin. Ma'lumki, o'quvchining turli ko'rinishdagi harakati va faoliyatida uning maxsus o'ziga xos baholash munosabati namoyon bo'ladi. Aynan o'quvchining baholash munosabatlariga ko'ra yangi qadriyatlarni o'zlashtirishi amalga oshiriladi yoki bo'lmasa avvaldan mavjud bo'lgan qadriyatlar (masalan, ijtimoiy normalar, nuqtai nazarlar, qarashlar, fikrlar, qonun-qoidalar) yanada ongda mustahkamlanadi.

Fanda ehtiyojlar inson faoliyatining faolligi sababi va manbai sifatida ko'rib chiqiladi. O'zining kelib chiqishi va rivojlanishiga ko'ra ular ikkita bosqichni bosib o'tadi. Birinchi bosqichda ehtiyoj xuddi bir ichki, faoliyat uchun yopiq sharoit sifatida xarakterlanadi. Ushbu bosqichda qadriyat ehtiyojni qondirishga qodirdir, ideal sifatida maydonga chiqadi, buni amalga oshirish esa berilgan ehtiyojning real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa mana shu mavjud ehtiyojni qondirish uchun vositalarni tanlashga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda ehtiyoj - real bir kuchdir, u insonning aniq bir faoliyatini boshqaradi. Bu yerda ehtiyoj bilan mazmun aniqlashtirilib olinadi, u esa aynan tashqi reallikdan kirib keladi. O'z navbatida, ehtiyoj faoliyatni jadallashtiradi va o'zining aniq natijasi bilan yakunlanadi. Avvaliga u sharoit sifatida maydonga chiqadi, biroq talab harakat qilishni boshlash bilan birga uning transformatsiyalanishi va ehtiyojning «o'zida» bo'lmay qolishi yuzaga keladi. Qanchalik faoliyat rivojlansa, shunchalik uning ko'zda tutilgan holati natijaga aylanib boraveradi. Shuning uchun faoliyatni ehtiyojlarning qondirilishi va kelib chiqishi orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin. U bir vaqtning o'zida mavjud ehtiyojlarni qondirish jarayoni va yangi ehtiyojlarni qondirish jarayoni va yangi ehtiyojlarni yaratish sharoiti, shu bilan birga mavjud subyekt va obyekt o'rtasidagi qarama-qarshilik yechimi jarayoni va yangining paydo bo'lishini nazarda tutadi.

Ehtiyojlar kelajakka yo'naltirilgan bo'lib, natijada hayotiy faoliyat namunasini dasturlashtiradi. Ehtiyojlar o'zining regulatorlik funktsiyasiga ko'ra, o'zida muhim ahamiyatliligi yuqori bo'lgan shaxs rivojlanishi mezonini aks ettiradi. Ehtiyojdan maqsadni shakllantirishga o'tish o'z-o'zidan amalga oshirilmaydi. Ehtiyoj va maqsad

motivni birlashtiradi. Ehtiyojlar motivga nisbatan birlamchidir, ular esa aynan kelibchiqqan ehtiyoj asosida shakllanadi. Faollik ehtiyojlarning o`zidan kelib chiqmaydi, balki subyektning mavjud holati, shart-sharoiti o`rtasidagi bog`liqdir. Aynan shu qarama-qarshilik (ziddiyat) faoliyatni rag`batlantiradi (stimul), va shart-sharoitlarning o`zgarishi yoki saqlab qolinishiga kurashishgaundaydi.

O`quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish maqsadga yo`naltirilgan trening mashg`ulotlari, pedagogik-psixologik o`yinlarni samarali tashkil etishga ko`p jihatdan bog`liq. Quyida ayrim o`yin va trening mashg`ulotlarini keltirib o`tamiz.

«Qadriyatlar» o`yini.

Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog`ozlarga ajdodlar tajribasida o`z ifodasini topgan qadriyatli tasavvurlarni ahamiyatlilik darajasiga ko`ra yozib chiqishlari so`raladi. Keyin varaqlar shunday aralashtirilishi, ya`ni eng qadrli narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerakligi aytiladi. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro`y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo`lganliklarini his qilib ko`rishlarini taklif etadi. So`ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog`ozni g`ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko`rishlarini so`raydi.

Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Shundan so`ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajralayotgan vaqtda qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg`uni his qilganligini eslash taklif etiladi. Keyin boshlovchi mo`jiza ro`y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug`ilganligini e`lon qiladi va talabalar g`ijimlangan qog`ozlarni birma-bir qaytarib oladilar. So`ng ishtirokchilardan qadriyatlarni yo`qotilgan vaqtdagi holati va g`ijimlangan qog`ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo`qotilgan paytdagi qadriyatli tasavvurlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo`qmi ekanligini so`raydi. Guruh a`zolaridan ba`zilari qadriyatlarni ahamiyatiga ko`ra o`rinlarini almashtirganliklarini ham ma'lum qilishadi. Mashg`ulot so`nggida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarni bayon etadi.

«Men hech qachon ...maganman» o`yini.

Mazkur o`yin jarayonida o`quvchilarga mavjud qadriyatlar tizimidan foydalanib, ularning shaxsiy ahamiyatini o`zlarida namoyon eta olishlari so`raladi. Ishtirokchilar navbatma-navbat «Men hech qachonmaganman» degan jumladan iborat gap aytishlari lozimligi belgilab qo`yiladi (masalan, «Men hech qachon yolg`on gapirmaganman», «Men hech qachon o`zimdan kattalarga tik qarab gapirmaganman», «Men hech qachon haqoratli so`zlarni ishlatmaganman» va h.k.). Qolgan talabalar esa, aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto`g`ri bo`lsa barmoqlarini bukib boradilar. Ya`ni, masalan, biror o`quvchi haqoratli so`zlarni ishlatga, bitta barmog`ini bukadi,

keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap hamuning uchun noto'g'ri bo'lsa (ya'ni kattalarga tik qarab gapirsa) yana bitta barmog'ini bukadi va h.k. Jami o'nta gap aytilganidan so'ng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechitasi bukilmasdan qolgan bo'lsa, o'sha yutadi. O'qituvchi o'quvchilarni aytilayotgan fikrlar reallikka mos bo'lishi va barmoqlarni adolatli bukish lozimligi haqida ogohlantirib boradi. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlariga qadar davom ettiriladi.

«Mumkin emas...» o'yini.

Mazkur o'yin qadriyatlar tizimini to'g'ri tahlil eta olish maqsadida amalga oshiriladi. Buning uchun guruh ikkiga bo'lib olinadi. Birinchi guruh o'z xohish-istaklarini bayon qilishi, ikkinchi guruh esa bunga rad etish mazmunidagi javobni berishlari so'raladi. O'n daqiqadan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashadilar. O'yinda quyidagi fikrlardan foydalanish mumkin:

-Men baribir o'z maqsadimga erisha olmayman.

-Yo'q, unday dema. Yaxshi niyat qilib, yaxshi fikrlar o'ylasang, u albatta amalga oshadi.

-Ba'zi o'qituvchilarimizni hurmat qilmayman, chunki bilimlari sayoz.

-Yo'q, bunday qilishing to'g'ri emas. Alisher Navoiy aytganlar: «Haq yo'lida kim sanga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila».

-Menga ahamiyati yo'q, bugun boshqa odam bilan, ertagaboshqa odam bilan do'st bo'lib keta olaman.

- Bunday qilishing xato. Chunki bu dunyoda ikkiyuzlamachi bo'lgan odamning qiyomatda o'tdan yasalgan ikkitili bo'ladi.

- Men har doim o'zim xohlagan fikrni ayta olaman.

- Sen buni qila olishing mumkin, lekin bu ish senga doim kulfat olib keladi. Chunki «Qora bosh yag'isi qizil til turur, Necha bosh edi u, yana ham yeyur» va boshqalar.

O'yindan so'ng fikrlarni rad qilish uchun qo'llanilgan dalillar, ularning sabablari va mazmuni tahlil qilib chiqiladi.

«Qadr-qimmat tuyg'usi» treningi.

Treningni maqsadi: o'quvchilarda o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'zini baholash va boshqalar bilan aks aloqaga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Treningning borishi:

I. Dastlab barcha o`quvchilar bir varaq qog`ozga o`zining alohida jihatlari ro`yxatini tuzishadi.

II. So`ng trener ularning biridan o`zining alohida jihatlari ro`yxatini o`qib berishni so`raydi.

III. O`quvchi o`z ro`yxatida yozilganlarini o`qib bo`lgach, trener boshqa o`quvchilar orasidan mazkur o`quvchi haqida fikr bildirishlarini so`raydi, ya`ni aks aloqa vaziyati vujudga keltiriladi.

O`quvchilar aks aloqa jarayonida quyidagilarga rioya qilishlari shart:

- 1) aks aloqani Sizdan biror o`quvchi haqida so`rashganlaridagina bering;
- 2) fikr va tuyg`ularingiz haqida gapirayotib, ularni keltirib chiqargan aniq so`z va xatti-harakatlarni tilga olib o`ting;
- 3) boshqani xafa, yoki haqorat qiladigan tarzda gapirmang;
- 4) baho bermang;
- 5) maslahat bermang: «Sening o`rningdabo`lsam,...», «Sen ... qilishingkerak» kabijumlalarni ishlatmang.

IV. Mazkur vaziyat so`nggi ishtirokchi o`z ro`yxatida yozilganlarini o`qib berib, unga aks aloqa ko`rsatilguniga qadar davom etadi.

«Proektiv rasm» treningi.

Hammadan ikkita rasm ishlash so`raladi: «men qandayman» va «men qanday bo`lishni istayman». Rasm ishlashga besh daqiqa ajratiladi. Rasmlar imzolanmaydi. Rasmning texnik jihatlari muhim emas. Hamma rasmlar xona o`rtasida yoyiladi. Keyin bittasi tanlab olinadi. Hammaga ko`rinadigan qilib qo`yiladi. Keyin hamma navbat bilan nimani ko`rayotganini aytadi. U yerda nima chizilgani va nimani his qilganini, rasm ishlagan kishi, uningcha, o`zini qanday ko`rayotgani va qanday ko`rishni istayotgani(nimani o`zgartirmoqchi ekani) haqida gapiradi. Hamma navbat bilan gapiradi. Bunda muallif o`zini tanishtirmaydi. Hamma xohlovchilar gapirib bo`lgach, rasm muallifini topishga urinib ko`rish mumkin. Keyin muallif o`zini tanitib, rasmda nimani ifoda etmoqchi bo`lganini tushuntiradi, o`ziga yoqqan replikalarga javob qaytaradi. Muhokama chog`ida kimning talqini mualliflarga ko`proq yoqqanini aytib o`tiladi. Inteorizatsiya bosqichida o`quvchilarda qadriyatlarni ichki qabul qilishga doir trening mashg`ulotlarini o`tkazish ko`zda tutiladi.

Bunday treninglar orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarda qadriyatli munosabatlar, ularga bo'lgan hurmat yuksak darajada rivojlanadi. Biroq bu jarayon darsni qanday tashkil etilishiga bo'g'liq.

Xulosa.

Mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan keyingi o'tgan qisqa vaqt ichida respublikamizda demokratik adolatli va huquqiy davlatchilikni shakllantirish, xalqimizning farovonligini oshirish, uning ma'naviy ruhini tiklanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, ajdodlarimizdan qolgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar xalqimiz o'ziga qaytarildimoqda, milliy urf-odatlar, an'analar, qadim qadriyatlar tiklanmoqda. Millatimizning o'zligini anglash jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Bularning hammasi mamlakatimizning xalqaro miqyosda obro'-e'tiborining oshishiga va millatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini qayta tiklashga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xalqimiz asrlar osha yashab kelgan an'analar, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga etkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmoqda.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida qadriyatlarning roli juda yuqori pog'onada turadi. Buni trening mashg'ulotlari davomida ham bilishimiz mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan treninglar natijasi shuni ko'rsatadiki, ularda qadriyatlar ruhining mujassamligi aynan vatanparvarlik hissi, burchga sadoqat, insonparvarlik kabi tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi. Demak biz mashg'ulotdan ko'zlangan natijaga erishdik desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Dunyo bugun O'zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, qadriyatlarining umuminsoniy g'oyalar bilan mujassamligi, san'at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak biz globallashtirish jarayonida passiv qabul qiluvchi tomonga bo'lmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti-(2014-y).
2. Karimov I.A." Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". -T.: 1998.
3. Karimov I.A." Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". –T.: 2008.
4. 1.Karimov I.A. «Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas'ulmiz» 9-jild. T.: O'zbekiston, 2001
5. I.Karimov ."Barkamol avlod orzusi "
6. I.A. Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent."O'qituvchi" nashriyoti: 2012.
7. Prezident I.A.Karimov ma'ruzalari.
8. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va ahamiyati" Maruzalar matni. T: 2006.
9. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va ahamiyati" Maruzalar matni. Jizzax: 2010.
10. "Pedagogik aksiologiya" O'quv qo'llanma. T: 2013.
11. "Milliy istiqlol g'oyasi" Darslik. Toshkent: 2007.
12. S.X.Qodirova, R.M.Nazarova, F.M.Axmedova, N.S. Salimsaqova"“MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” (ma'ruzalar matni). Toshkent: 2008.
13. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI FANIDAN MA'RUZALAR.(bakalavriyat bosqichi uchun). SAMARQAND 2007 yil.
14. Ziya.net. (internet sayti).

